



Dilbar TURAYEVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi(PhD)
E-mail: DilbarTurayeva9977@gmail.com

BuxDPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) M. G. Rustamovna taqrizi asosida

THE EMERGENCE OF THE AUTHOR'S PUNCTUATION AND NEW TRADITIONS IN THE PUNCTUATION SYSTEM

Annotation

The strengthening of the tradition of using punctuation marks according to the author's style made it possible to use punctuation marks in a way that does not obey the norm. Author's punctuation - the occasional usage of punctuation marks according to the author's style, although observed since the 18th century, reached its final stage of development at the end of the last century. These traditions entered the Uzbek script through the punctuation calk in the process of translation of artistic and scientific works written in English and Russian into Uzbek language.

Key words: Linguistics, punctuation, author's punctuation, tradition.

ПОЯВЛЕНИЕ АВТОРСКОЙ ПУНКТУАЦИИ И НОВЫЕ ТРАДИЦИИ В СИСТЕМЕ ПУНКТУАЦИИ

Аннотация

Укрепление традиции использования знаков препинания в соответствии со стилем автора позволило использовать знаки препинания не подчиняющимся норме. В пунктуации авторская пунктуация - периодическое употребление знаков препинания по авторскому стилю, хотя и наблюдается с XVIII века, но окончательной стадии своего развития достигла в конце прошлого века. В процессе перевода на узбекский язык художественных и научных произведений, написанных на английском и русском языках, эти традиции вошли в узбекскую письменность.

Ключевые слова: Языкознание, пунктуация, авторская пунктуация, традиция.

MUALLIF PUNKTUATSIYASINING YUZAGA KELISHI VA PUNKTUATION TIZIMDAGI YANGI AN'ANALAR

Annotatsiya

Tinish belgilaridan muallif uslubiga ko'ra foydalanish an'anasining kuchayishi tinish belgilarining me'yorga bo'ysunmagan tarzda qo'llanishiga imkon yaratdi. Bu holat "tinish belgilarining qo'llanishi yozuvchining "shaxsiy didi"ga bog'liq bo'lib qolishi", deb izohlandi. Punktuatsiyada muallif punktuatsiyasi - tinish belgilarining muallif uslubiga ko'ra okkozional qo'llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o'tgan asr oxirlarida o'z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko'tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an'analar punktuatsion kalka asosida o'zbek yozuviga ham kirib keldi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, punktuatsiya, muallif punktuatsiyasi, an'ana.

Kirish. Punktuatsiyada muallif punktuatsiyasi - tinish belgilarining muallif uslubiga ko'ra okkozional qo'llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o'tgan asr oxirlarida o'z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko'tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an'analar punktuatsion kalka asosida o'zbek yozuviga ham kirib keldi. B.Bahridinov tinish belgilarini individual qo'llash - muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan uch omilni ko'rsatib o'tadi: 1) punktuatsiya me'yorlari qat'iy belgilanmagan davrda yashagan ijodkorlar, yozuvchilar, olimlar asarlarida tinish belgilarining ishlatilishida mavjud umumiy punktuatsion (ko'pgina tillar uchun umumiy bo'lgan) me'yorlarga amal qilishda ham, o'zbek tili qurilishidan kelib chiqib xususiy punktuatsion qonuniyatlarni shakllantirishda ham bir xillik kuzatiladi. Ya'ni, muallif uslubi punktuatsiyaning tayanch me'yorlarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi; 2) punktuatsiyada umumiy me'yorlar ishlab chiqilgan, biroq mualliflarning turli asoslariga ko'ra tinish belgilarini qo'llashda individual yondashishi davom etaveradi[1]. Bu punktuatsiyada uzuslarni yuzaga keltiradi. Uzus - qonun-qoidadan chetlashish punktuatsiya istiqbolidagi zamonaviy umumiy g'oyalarni aks ettiradi va asta-sekinlik bilan me'yorlarni o'zgartirish, tilning milliy tabiatiga yaqinlashtirish, mavjud me'yorlarni isloh qilish uchun zamin yaratadi; 3) ijodkorlarning tinish belgilaridan poetik vosita

sifatida foydalanish maqsadida okkozional qo'llashi, shuningdek, zamonaviy ijodkorlarning punktuatsion kompetentlikka ega emasligi, nashriyotlarda tahrir jarayonlarining sustligi.

Birinci va ikkinchi holatda muallif punktuatsiyasi me'yorlarni shakllantirish va takomillashtirish uchun xizmat qilsa, uchinchi holat tartibga solinmagan, me'yordan tashqari punktuatsiya taraqqiyotiga zamin hozirlaydi. Bu esa amaliyotda joriy me'yorlarga bo'ysunmagan fors-major holatlarga olib keladi. Bu o'z-o'zidan individual yondashuvga zarurat tug'diradi. Shu bilan birga zamonaviy badiiy va publitsistik asarlarda me'yoriy holatlar bilan birga tinish belgilaridan tartibga bo'ysunmagan holda foydalanish an'anasining kuchayishi punktuatsion uzus va punktuatsion okkozializmni ajratishni taqozo etmoqda. Bu esa punktuatsion stilistikada turli nutq uslublarga xos qo'llanishlarni individual o'rganish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muallif punktuatsiyasi zamonaviy punktuatsiya amaliyotida "sevimli" va "yoqimsiz" belgilar tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Qaysidir ijodkor tirega ko'proq murojaat qilsa, qaysi biri nuqtali vergul yoki ikki nuqtani ko'proq qo'llaydi. Misol uchun, Linn Transs bugungi kunda tirega, xususan, elektron tarjimada matn tarkibidagi ko'plab tinish belgilarini o'rni almashtirishga ko'ra "grammatikaning dushmani" deb

qaralayotganini ta'kidlaydi: I saw Jim – he looked gr 8 – have you seen him – what time is the thing 2 morrow – CU there. Uningcha, tirening bu qadar ommabopligi mazkur belgining doimo to'g'ri qo'llanishi va matnda qoldirib ketib bo'lmashligi bilan bog'liq.

Xuddi shu an'ana rus tilida ham kuzatildi. Xususan, N.S.Valgina shunday deydi: “Hozirgi paytda tire boshqa tinish belgilarini siqib chiqaryapti, xususan, ikki nuqtaning ko'plab funksiyalarini egallab bormoqda. Zamonaviy nashrlarda tirening funksiyalarining kengayib borayotgani ushbu tinish belgisining universallashtirishidan dalolat beradi”. N.N.Goncharovning ta'kidlashicha, “Virjini Vulf prozasi nuqtali vergul bilan to'lib-toshgan[3]. Ko'p nuqta Agata Kristi va Garrold Pinterning sevimli belgisi. Tire Lourens Stern uslubining asosiy belgisi, Jeyn Osten, Emili Dikkinson tireni yozuvchining tafakkuri aks etgan tushunchalar mohiyatini xuddi oynadagidek aks ettiradi. Uningcha, aksariyat zamonaviy yozuvchilar nuqtali vergulni yoqtirmaydilar, uni burjuaziyaga xos xarakterini tan oladilar: “keraksiz belgi” (Jorj Oruyell), “jirkanch xunuk, itning qornidagi kana misoli” (Donald Bartelmi). Fey Ueldon va Martin Emis nuqtali vergulsiz matn tuzishga harakat qilmoqdalar. Hillari Mantelning fikricha, nuqtali vergulsiz matnda ikki yuzdan ortiq so'zni davom ettirib bo'lmaydi. Gertruda Steyn vergulni “laganbardor, tobe belgi” ekani, nuqtali vergul esa unga qaraganda qo'llanishi ancha erkin, kuchli, ammo ichki mohiyatiga ko'ra vergul bilan teng (“Poeziya i grammatika”, 1935) deydi. Xuddi shuningdek, ikki nuqta atrofida ham ikki xil munosabat yuzaga keldi. Jeyms Joys uni haqiqiy klassik belgi sifatida yaxshi ko'rsa, Pelam Grenvill Vudxaus undan foydalanmaslikka harakat qildi. Biroq undov belgisi eng ko'p tanqidga sabab bo'ldi. Masalan, Mark Tven va Frensis Skott Fitsjeraldlar uning ishlatilishiga qarshi chiqdi. So'roq belgisi bu borada alohida mavqega ega edi. Faqat juda dovyurak ijodkorlar Jeyms Joys va Gertruda Steyn kabilar ularni qo'llamaslikka jur'at qildilar[4].

D.Kristal esa bugungi davrni “internet davri va kuchsizlangan punktuatsiya davri” deb ataydi. U ayni paytdagi matnlarda ishlatiladigan tinish belgilarning 90 % vergul yoki nuqtaga to'g'ri kelishini, aksariyat tinish belgilarining bajaradigan funksiyasi faqat nuqta va vergul zimmasiga yuklanib qolayotgani, ayrim tinish belgilari, masalan, nuqtali vergul deyarli qo'llanmayotganini, Amerika ingliz tilisiga qaraganda britancha variantda juda kam uchratish mumkinligini ta'kidlaydi[5]. Umuman, boshqa olimlar ham, masalan, N.N.Goncharova XXI asrga kelib nuqtali vergulning ko'p vazifalarini ikki nuqta egallab borayotganiga urg'u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tinish belgilari taraqqiyotining so'nggi bosqichiga kelib, ayrim murakkab qurilishli gaplar tarkibida qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta kabi tinish belgilarini mavjud me'yorlarga ko'ra qo'llash yozuvning estetik didga mosligiga ta'sir etishi bilan bog'liq holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'la boshladi. Masalan, qoidaga ko'ra har qanday gapdan so'ng gapning ifoda maqsadiga qarab biror tinish belgisi qo'yiladi. Ma'lumki, sarlavha matnning mustaqil komponenti. U ko'pincha atov gap, darak, so'roq, buyruq gap, ba'zan his-hayajon gap bo'lishi mumkin. Masalan, Muhammad Yusuf qalamiga mansub ayrim she'rlarning sarlavhasini keltiramiz: “Tug'ilgan kun”, “O'zbekning ayollari”, “Tunda she'r aytishdik”, “Armonlaring bor”, “Kokilingni kim kesdi?”, “Ona, meni nega tug'ding?”, “Shukr deysan, sen qachon!”, “Kinoga kirmayman!”, “Men seni sevaman!..”, “Tanish terak...”, “O'zim yomon...”, “Marhamat tomonga yo'lingiz tushsa...”, “Sevgi bu ...” va b. Shu bois nafaqat boshqa tillar, xususan, o'zbek tilida ham punktuatsiyaga bag'ishlangan dastlabki ishlarda sarlavhadan so'ng nuqta qo'yilishi kuzatiladi. Bu shunchaki punktuatsiyaning amalda bo'lgan qoidalariga

asoslangan. Davrlar o'tishi bilan dastlab nemis, ingliz, keyinchalik rus tilida va u orqali o'zbekcha matnlarda ham sarlavhadan so'ng gap oxirida qo'llanuvchi belgilardan nuqtaning ishlatilmasligi an'anaga aylandi. Bugungi kunda bu holatga hamma odatlandi. Ammo sarlavha oxirida so'roq, undov, ko'p nuqtaning qo'llanilishida mavjud me'yorlarga amal qilinadi. Gap shundaki, nuqtaning qo'llanilishida ko'p nuqta, undov, so'roqlar kabi mantiqiy (semantik) prinsip emas, balki intonatsion va struktur-sintaktik prinsiplar ustunlik qiladi. Mantiqan yondashilganda sarlavhani ajratish, chegaralash ehtiyoji yo'q. So'roq, undov, ko'p nuqta matn qismlarini ajratish bilan birga, semantik funksiya ham bajaradi. Sarlavha so'ngida kelganda ularning faqat shu funksiyasi “ishlaydi”. Ma'lumki, tillarda punktuatsiyaning me'yoriy qo'llanishi shu til uchun umumiy tan olingan bo'lib, mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi, ya'ni muayyan muallifgagina xos individual qo'llanish – anormal (okkazonal, noodatiy) holat hisoblanmaydi. Tinish belgilarining noodatiy qo'llanishi unga intellektual mulk sifatida qarashga olib keldi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy rus tilida badiiy, ilmiy, publitsistik asarning o'zi kabi unda qo'llangan tinish belgilari ham mualliflik huquqi bilan himoyalangan darajasiga yetdi. Masalan, tilda mavjud bo'lgan umumiy me'yorlarga zid ravishda qo'llangan undov yoki so'roq belgilari shaklidan ko'zga tez tashlanadigan tarzda poetik personajlarni yaratishda foydalanish: “А по поводу Гузя и Наримбекова я вот что скажу: вообще не понятно, как можно не любить стволы родных берёз? Человек, родившийся и выросший в России, не любит своей природы? Не понимает её красоты? Её заливных лугов? ... Русского характера? Ведь ты же русский? Ты родился в России? Ты ходил в среднюю школу? Ты служил в армии? Ты учился в техникуме? Ты работал на заводе? Ты ездил в Бобруйск? В Бобруйск ездил? Ездил, а? Ты в Бобруйск ездил, а? Ездил? Чего молчишь? ... Чего сопишь? Так, б...? Так, б...? Так вот? Вот? Вот? Вот? Вот, б...? ...[6] Yoki: “... и посему знавших Вас в годы соблазнов Ваших и мрачных фантазий, что несомненно отложилось в беззащитном и ранимом сознании их и способствовало возможным фактам их будущей жизни, нами обсуждаемым выше, на их восприятие литературы и культуры целиком ... внуков Ваших, правнуков и внуков Ваших правнуков! Не страшен ли Вам суд их будущий? И вообще – суд будущего? а? страшен? – страшен, страшен! я знаю! суд-то будущего, неужто ли не страшен! – нет! не страшен! – ну, ну, не страшен – нет, нет, никогда! уж полноте, Владимир Георгиевич! а, может, и суда-то никакого нет? а? [Ерофеев, 2002, с. 249 –250]”.

Marina Svetayeva “Sentabr” to'plamiga kiritilgan “O'rmon” she'rida bir misrada tirening bir necha funksiyasidan foydalanish orqali o'rmonning badiiy tasvirini berishda o'rinli foydalaniladi:

Видел, как рубят? Руб –
Рубом! – за дубом – дуб.
Только убит – воскрес!
Так же, как мёртвый лес
Зелен – минуто чрез! –
(Мох – что зеленый мех!)

Не погибает чех.

Yoki M.Svetayeva “Стихи к Блоку” deb nomlangan she'rida ham tirening nutqni ixcham bayon etish vositasi sifatidagi funksiyasidan unumli foydalanganini kuzatiladi:

Зверю – берлога,
Страннику – дорога,
Мёртвому – дроги,
Каждому свое.
Женщине – лукавить,
Царю – править,

Мне – славить

Имя твоё[7].

Umuman, bu kabi holat o'zbek punktatsiyasida ham kuzatiladi. B.Bahriddinovaning ta'kidlashicha, "Tiredan individual foydalanish, ayniqsa, qisqa, lo'nda nutqli mualliflarda teziladi. Deylik, Tog'ay Murot uslubida tirening faolligini oshirish nutq vositalarini "iqtisod qilish" bilan bog'liq: Sizga yolg'on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor – bir! Yoshnikiyam bor – ikki! Momonikiyam bor – uch! Qiznikiyam bor – to'rt! Chaqaloqnikiyam bor – besh! Xo' – o'sh, beshta bo'ldimi? (T.M.) X.Do'stmuhammad esa nutq vositalarini tejashda ko'p nuqtadan o'rinli foydalanadi: Faqat, ko'pdan buyon ko'nglimga tugib yurgan orzum-armonim hurmati so'nggi marta xat yoza qolay.....; Mayli, ularning soni ko'paygandan-ko'paysin, ammo Siz yolg'iz meni, xo'p?

Kel, oqibatli Do'st, beg'ubor tuyg'ularimiz qissasiga g'oyatda oddiy, lekin bag'oyat yuksak maqomdagi so'zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o'tasin:

–

– ...-?

–!.. ("Men – sensiz, Sen – mensiz")"[2]

Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham dunyo tillarining ta'siri, qolaversa, davlatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda punktatsiyaning yangi-yangi muammolari yuzaga kela boshladi. Masalan,

A.Oripovning qaysi she'rida shunday jumlar uchraydi: "Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!"?

Sen M.Yusufning quyidagi she'rini o'qiganmisan "Kokilingni kim kesdi"?

Sen M.Yusufning quyidagi she'rini o'qiganmisan: "Shukr deysan, sen qachon?!"? ko'rinishidagi gaplarda tinish belgilarining joriy me'yorlarga muvofiq qator kelib qolishi bilan bog'liq.

Devid Kristalning nuqtayi nazaricha, ijtimoiy tarmoqlar punktatsiyasini ikki yo'nalishda o'rganish kerak: birinchisi, minimalizm – barcha tinish belgilarini bir-biriga zich joylashtirib qo'llash; ikkinchi yo'nalish, maksimalizatsiya – muayyan tinish belgisidan ketma-ket, bir necha marta qator foydalanish. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda so'roq belgisining faolligi oshdi. Hatto kommunikantlarning kamdan-kam hollarda uni yolg'iz holda ishlatishi, asosan, kompleks qo'llashi «?????????????????» kuzatilyapti.[6] Insonning hissiyotini, hayratini yozuvda ifodalash istagida qo'llangan undov belgilarining soni, berilayotgan savolning muhimligi, unga javobni tezroq olish istagi so'roq belgilarining soni bilan ko'rsatildi. Masalan, «У меня есть отличная новость!» «Она как-нибудь связана с новым годом?» «Да, и тебя она касается лично». «Рассказывай!» (спустя время) «Что случилось?????????????» Как это касается меня?????

?????» Yoki: «Выходи!!!!!!!!!!!!!!!!!!!! Я тебя уже жду!!!!!!!!!!!!!!»[8]

Ushbu holat o'zbek badiiy uslubida ham aks eta boshladi. Masalan, "X.Do'stmuhammad uslubida tinish belgilarining o'ziga xos tarzda qator ishlatilishi ham muallif individualligini belgilab beradi: – Qayerdasaannnn????!!!! – deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannnn????!!!! ("Men – sensiz, Sen – mensiz") [2]

Ingliz va o'zbek tillarida bo'lgani kabi rus tilida ham murakkab qurilishli konstuksiyalarda tinish belgilarining qator qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab savollar yuzaga keldi. Masalan,

Quyidagi holatda gap oxirida nuqta qo'yiladimi, yo'qmi?: Я читаю роман "Кто виноват?". Quyidagi holatda ko'chirma gapni yopuvchi qo'shtimoq qo'llanadimi, yo'qmi?: Профессор указывает, что "в золотой фонд литературы вошли такие произведения русской классики, как "Евгений Онегин".

Gapda ichki va tashqi qo'shtimoqlar orasida so'roq yoki undov belgisi qo'llangan bo'lsa, bir xil qo'shtimoqlardan foydalaniladimi yoki ikki xil?:

Quyidagi holatlarda qaysi tinish belgisi tejaladi?: Не только песен нет, куда девался сон; всё подозрительно, и всё его тревожит. / Появились в продаже дачная мебель: столы, стулья, диваны и т.д./ У него было три дочери: Вера, Надежда, Любовь.; Вся эта область – дно моря в прошлом[12].

Xulosa va takliflar. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tinish belgilari tadqiqiga bo'lgan yondashuvlar har qancha taraqqiy etmasin, rus tinish belgilari taraqqiyotining yangi bosqichida ham an'anaviy qarashlar yetakchi bo'lib qolmoqda. Sababi an'anaviy me'yoriy punktatsiya matnni tushunishni osonlashtirsa, me'yordan tashqari – tartibga bo'ysunmaydigan punktatsiya hammaning birdek matn mazmunini to'g'ri anglashi va tushunishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois barcha davrlarda tilning me'yorlashtirilgan punktatsiyasi tilshunoslik bo'limi muammosi doirasida qaraladi. Hozirgi kunga qadar ham rus punktatsion tizimida tinish belgilarining qo'llanish prinsiplarini belgilashda uch asosiy yo'nalish – sintaktik, mantiqiy, intonatsion prinsiplar ustunligicha qolmoqda. XX asrning oxirlarida ushbu sanalgan an'anaviy yo'nalishlar qatoriga tinish belgilarining kommunikativ – yozma nutqda tinish belgilari orqali axborot uchun muhim zaruriy bo'laklarni – kommunikativ maqsadni oydinlashtirish jihatiga ham diqqat qaratila boshladi. Kommunikativ vazifani ajratish masalasi tinish belgilarining an'anaviy asosiy vazifasi – og'zaki nutqni yozuvda to'g'ri ifodalash uchun xizmat qiladigan alifbodagi harflardan tashqari belgilar tizimi bilan bog'liq bo'lib, u ham o'quvchiga yozuvchi qanday maqsadda qo'llagan bo'lsa, shunday tushunarli bo'lishini taqozo qilardi.

ADABIYOTLAR

1. Кольцова Л. Художественный текст через призму авторской пунктуации: дисс. докт. филол. наук. – Воронеж, 2007. –377с.
2. Bahriddinova B.M. Zamonaviy o'zbek punktatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015. –66b.
3. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – Москва : Высшая школа, 2004. –259с.
4. Гончарова Н.Н. К вопросу о современных тенденциях в английской пунктуации // НАУЧНЫЙ ДИАЛОГ. 2018. № 4. – С.54-64.
5. Crystal D. Making a point: the pernicky story of English punctuation – London : 2016. –378p.
6. Розенталь Д. Универсальный справочник по русскому языку: Пунктуация. Практическая стилистика / Розенталь Д. – Москва: Мир и Образование, 2013. –704с.
7. Сафронова И.П. Эстетические функции пунктуации в поэзии Марины Цветаевой: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 23 с.
8. Холодковская Е.В. Пунктуация как средство реализации просодии при общении в социальной сети facebook (на материале англоязычной версии) // Вестн. Волгogr. гос. ун-та. Сер. 2, Языкозн. 2014. № 5 (24)
9. Стурикова М.В., Кирпичикова Е. Пунктуация в текстах социальных сетей//https://rsvpu.ru/filedirectory/8692/Sturikova-Kirpichikova_Doklad.pdf

10. Щевцова О.Н. Стилистические функции знаков препинания: На материале прозы В.Маканина: дисс. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1998. – 243 с.
11. Нашхоева М.Р. Особенности пунктуации в сетевых текстах форумов и блогов (на материале английского языка): Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2012, - 248 с.
12. Шавлукова Б.Ю. Знаковые качества пунктуации в текстах художественного и научного регистров: “авторская пунктуация”: автореф. дисс. ... к.ф.н. – Махачкала, 2008. – 23 с.